


**NAVOIY VILOYATININGINING
CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-may*)

Navoiy viloyati bo`yicha joriy yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2466,6 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 300,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 80,3 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2166,1 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 1,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 345,5 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko`rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.

**Hududlar kesimida
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so`m)**




*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi, Tomdi, Karmana tumani, Navbahor, tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, %




**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	2466,6	300,5	12,2	2166,1	87,8
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	958,3	284,4	29,7	673,9	70,3
Zarafshon shahar	184,6	2,9	1,6	181,7	98,4
Karmana tuman	391,6	1,1	0,3	390,5	99,7
Konimex tuman	65,8	0,4	0,5	65,4	99,5
Qiziltepa tuman	284,5	3,9	1,4	280,6	98,6
Navbahor tuman	124,7	0,4	0,3	124,3	99,7
Nurota tuman	85,2	1,1	1,3	84,1	98,7
Tomdi tuman	15,2	0,1	0,8	15,1	99,2
Uchquduq tuman	88,5	0,3	0,4	88,2	99,6
Xatirchi tuman	268,2	5,9	2,2	262,3	97,8

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,3 % ga o'sdi va 300,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2166,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 1,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, %



Joriy yilning yanvar-may oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Navbahor (99,7%), Karmana (99,7%), Uchquduq (99,6%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (29,7 %), Xatirchi tumani (2,2 %) kuzatilgan.

Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	2466,6	2462,9	3,7
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	958,3	954,6	3,7
Zarafshon shahar	184,6	184,6	-
Karmana tuman	391,6	391,5	0,05
Konimex tuman	65,8	65,8	-
Qiziltepa tuman	284,5	284,5	-
Navbahor tuman	124,7	124,7	-
Nurota tuman	85,2	85,2	-
Tomdi tuman	15,2	15,2	-
Uchquduq tuman	88,5	88,5	-
Xatirchi tuman	268,2	268,2	-

Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)

2018 yil yanvar-may




2019 yil yanvar-may



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-may oylarida 2462,9 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,06 foizga kamaydi.


Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-may oylarida 3,7 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga ko'paydi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (38,8 foiz), Karmana tumani (15,9 foiz), Qiziltepa tumani (11,5 foiz), Xatirchi tumani (10,9 foiz), va Zarafshon shahri (7,5 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 61,5 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,4 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 6,5 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % ga ko`paygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 55,0 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 3,7 %), tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko`rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahri, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarini misol keltirishimiz mumkin.

Mulkchilik shakli bo`yicha
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so`m)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	61,5	59,4	2,1
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	26,9	24,9	2,0
Zarafshon shahar	7,6	7,6	-
Karmana tuman	10,5	10,5	0,05
Konimex tuman	1,1	1,1	-
Qiziltepa tuman	4,6	4,6	-
Navbahor tuman	1,9	1,9	-
Nurota tuman	1,3	1,3	-
Tomdi tuman	0,6	0,6	-
Uchquduq tuman	2,1	2,1	-
Xatirchi tuman	4,7	4,7	-

Navoiy viloyatida mulkchilik
shakli bo'yicha ovqatlanish
korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)

2018 yil yanvar-may

2019 yil yanvar-may



Yuqoridagi solishtirma diagrammalardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-may oylarida 59,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,1 foizga kamaydi.


Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-may oylarida 2,1 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,1 foizga ko'paydi.

**NAVOIY VILOYATININGINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-may)*

2019 yil yanvar-may oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 863,9 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 93,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi , (mlrd.so`m)




Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko`ra, 457,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 84,8 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,0 %ni tashkil qilmoqda.

*-dastlabki ma`lumotlar

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 47,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan o`shish sur`atlari Karmana tumani, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumani, Zarafshon shahri, Nurota tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko`rsatkich viloyatda Karmana tumaniga va aksincha eng past ko`rsatkich Navoiy shahriga to`g`ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, %



Quyidagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 591,3 mlrd.so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,5 % ni tashkil qiladi).

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	863,9	406,0	47,0	457,9	53,0
Navoiy shahar	591,3	133,8	22,6	457,5	77,4
Zarafshon shahar	22,5	22,5	100,0	-	-
Karmana tuman	151,8	151,8	100,0	-	-
Konimex tuman	4,7	4,7	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	28,9	28,9	100,0	-	-
Navbahor tuman	32,0	32,0	100,0	-	-
Nurota tuman	3,3	3,3	100,0	-	-
Tomdi tuman	0,9	0,9	100,0	-	-
Uchquduq tuman	5,7	5,7	100,0	-	-
Xatirchi tuman	22,7	22,3	98,2	0,4	1,8

Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	863,9	863,4	0,5
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	591,3	591,3	-
Zarafshon shahar	22,5	22,5	-
Karmana tuman	151,8	151,3	0,5
Konimex tuman	4,7	4,7	-
Qiziltepa tuman	28,9	28,9	-
Navbahor tuman	32,0	32,0	-
Nurota tuman	3,3	3,3	-
Tomdi tuman	0,9	0,9	-
Uchquduq tuman	5,7	5,7	-
Xatirchi tuman	22,7	22,7	-


Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo
tovar aylanmasi ulushi, (%)
2018 yil yanvar-may **2019 yil yanvar- may**



Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-may oylarida 863,4 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,06 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-may oylarida 0,5 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,06 foizga ko'paydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi, %





Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (68,4 foiz), Karmana tumani (17,6 foiz) va Navbahor tumani (3,7 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (0871) 230-84-36